

OSILISH HOLATLARIDA TIL OSTI SUYAGI VA QALQONSIMON TOG‘AY JAROHATLARINI ANIQLASHDA SUD-TIBBIYOT LABORANTINING O‘RNI VA LABORATOR TEKSHIRUV XUSUSIYATLARI.

Sadikova Feruza Muxsumjon qizi

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi

Sud tibbiy ekspertizasi ilmiy - amaliy markazi

Toshkent viloyati filiali tibbiy kriminalistika bo‘limi laboranti

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi

Toshkent viloyat fililali, Toshkent shahri,

O‘zbekiston Respublikasi email: toshvilsteb@mail.ru



Annotatsiya. Osilish mexanik asfiksiyaning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Bunday holatlarda bo‘yin sohasidagi anatomik tuzilmalar, jumladan til osti suyagi va qalqonsimon tog‘ayda turli darajadagi jarohatlar kuzatilishi mumkin. Ushbu maqolada osilish holatlarida mazkur jarohatlarni aniqlash jarayonida laborantining vazifalari, laboratoriya tekshiruv bosqichlari va morfologik belgilar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: osilish, mexanik asfiksiya, til osti suyagi, qalqonsimon tog‘ay, sud-tibbiyot ekspertizasi, laborant, jarohat.

Kirish. Sud-tibbiyot amaliyotida osilish holatlarini tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Osilish natijasida bo‘yin organlari va to‘qimalarida bir qator morfologik o‘zgarishlar yuzaga keladi. Ayniqsa til osti suyagi va qalqonsimon tog‘aydagi sinishlar o‘lim mexanizmi hamda jarohatning tiriklik vaqtida yoki o‘limdan keyin paydo bo‘lganligini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Laborant tomonidan til osti suyagi va qalqonsimon tog‘ayga tekshiruvga tayyorlash bo‘lqichi muxim jarayon xisoblanadi. Ushbu jarayonda sud-tibbiyot laboranti ekspert uchun sifatli material tayyorlash va jarohatlarni aniqlashga ko‘maklashishda muhim o‘rin tutadi.

Til osti suyagi va qalqonsimon tog‘ayning anatomik ahamiyati

Til osti suyagi bo‘yinning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, mushaklar va bog‘lamlar uchun tayanch vazifasini bajaradi. Qalqonsimon tog‘ay esa hiqildoqning eng yirik tog‘ay tuzilmasi hisoblanadi. Osilish vaqtida sirtmoq bosimi va bo‘yin to‘qimalarining cho‘zilishi ushbu tuzilmalarda yorilishlar, sinishlar yoki qon quyilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. **Laborantning tekshiruv jarayonidagi vazifalari**

Tibbiy-kriminalistika laboratoriyasi laboranti quyidagi vazifalarni bajaradi:

bo'yin organlarini yumshoq to'qimalardan ajratib olish, yuvish va tozalash, til osti suyagi va qalqonsimon tog'ay ya'ni organokompleksni tekshiruvga tayyorlash, shu jarayonda makroskopik o'zgarishlar topilsa bu haqida ekspertga ma'lum qilishi va qayd etish, stereomikroskopik, rentgenologik yoki boshqa instrumental tekshiruvlarga tayyorlash, shuningdek o'zgarishlar topilgan sohalardan gistologik tekshiruv uchun namunalar olish. Olingan na'munalarni markirovkalash va hujjatlashtirish. To'g'ri tayyorlangan ob'ekt ekspert tomonidan aniq tashxis qo'yilishiga yordam beradi.

Makroskopik tekshiruv xususiyatlari. Laborant tekshiruvga tayyorlangan vaqtda quyidagi belgilarni aniqlanishi mumkin- til osti suyagida: katta shoxlar sohasida sinishlar, yumshoq to'qimalarga qon quyilishlari, suyak parchalarining siljishi. Qalqonsimon tog'ayda: yuqori patki shoxchalar sinishi, yoriqlar va deformatsiyalar, atrof to'qimalarda qon quyilishlar. Ushbu o'zgarishlarning laborant tomonidan aniq va to'g'ri qayd etilishi osilish mexanizmini baholashda muhim hisoblanadi. Til osti suyagi yoki qalqonsimon tog'ay sinishi har doim ham tiriklik vaqtida yuzaga kelganligini anglatmaydi. Shu sababli o'zgarishlar aniqlangan sohalardan gistologik tekshiruv uchun namuna olish muhim ahamiyatga ega.

Yoshga bog'liq xususiyatlar Adabiyotlarda qayd etilishicha, til osti suyagi va qalqonsimon tog'ay sinishlari katta yoshdagi shaxslarda ko'proq uchrashi ma'lum bo'lib, uzoq yillik ish jarayonimda o'zim xam amin bo'ldim. Bu holat kitoblarda va internet ma'lumotlarida yosh o'tishi bilan suyak va tog'aylarda kalsiyni to'planib borishi hamda mo'rtlashishi bilan izohlangan. Shuning uchun tekshiruv vaqtida marhumning yoshi ham inobatga olinishi lozim.

Natija. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, osilish holatlarida til osti suyagi va qalqonsimon tog'ay jarohatlari har doim ham uchramaydi. Biroq ular aniqlangan taqdirda o'lim mexanizmini baholashda muhim diagnostik ahamiyatga ega bo'ladi. Laborantning preparatlarni ehtiyotkorlik bilan ajratishi, tozalashi va hujjatlashtirishi tekshiruv natijalarining ishonchliligini oshiradi. Noto'g'ri ajratish jarayonida sun'iy sinishlar paydo bo'lishi mumkinligi sababli yuqori darajada ehtiyotkorlik talab etiladi.

Xulosa. Osilish holatlarida til osti suyagi va qalqonsimon tog'ay jarohatlarini aniqlash sud-tibbiyot ekspertizasining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda sud-tibbiyot laboranti materiallarni to'g'ri tayyorlash, saqlash va hujjatlashtirish orqali ekspert xulosasining aniqligiga sezilarli hissa qo'shadi. Shuning uchun xam tibbiy kriminalistika bo'limi laboranti zukko, o'tkir zexnli, kompyuter texnologiyalarini, zamonaviy usullarni bilishi va tez o'zlashtira olishi, o'z soxasini bilimdoni, shu bilan birgalikda ishiga vijdonan yondashmog'i kerak deb xisoblayman. Laborantning tekshiruvlarga tayyorlashni to'g'ri, sifatli va vaqtida bajara olishi jarohatlarning kelib chiqishi hamda o'lim yuzaga kelish mexanizmini baholashda muximdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika sud-tibbi ekspertiza ilmiy-amaliy markazi sud-tibbiyot ekspertiza tekshiruv amaliyotlarini bajarish yo'riqnomasi (2014-2025-yil).
2. Saveleva M.V., Smushkin A.B. Kriminalistika. Uchebnik. M,: Izdatelstvo Izdatelskiy dom. "Dashkov i K". - 2009 g.